

Art  
Flex

БІЛАРЖОН

PARILAR  
va ETIKDO'Z



ЭЛЬФЫ  
и САПОЖНИК

Qadim o'tgan zamonda bir etikdo'z yashagan ekan. U qo'li gul chevar ekan-u biroq, o'zi tikkan etiklarini sotish uning qo'lidan kelmas ekan. Qolaversa, olingan daromad bir juft yangi etik tikish uchun charm sotib olishga va o'zi hamda xotining bechoraholgina ovqatlanishiga arang yetardi. Shu sabab u pullarini amal-lab yetkazardi. Bu ham yetmaganidek oldinda uni bun-dan-da og'ir kunlar kutardi. Bechora etikdo'z har qancha harakat qilmasin, kambag'allik uning ketidan soyadek ergashardi. Mana hozir ham unda kichikroq etikka yetadigan charm qoldi xolos. Ochlikdan tinka-madori qu-rigan etikdo'z bir juft poyabzalning bichimini olibdi-yu, kirib uxlabdi. Azbaroyi g'aribligidan tunda o'tirib ish-lashi uchun loaqal shami ham yo'q ekan uning. Etikdo'z yotog'ida yotib o'zicha o'ylab qolibdi: "Bu ketishda ochlik va qashshoqlikdan o'lib ketadiganga o'xshayman. Qiynalib ketdim, biroq menga kim ham yordam berar-di?" Etikdo'z shular haqida o'ylay-o'ylay uxlab qolibdi. Tong otgach ustaxonasiga bemajol holda kirib kelibdi.



Когда-то давно жил-был один сапожник. Очень он любил своё ремесло, но как бы ни старался, ничего у него не получалось. Денег ему едва хватало на покупку кожи для одной пары сапог и на скудную еду им с женой. Так он и жил, еле-еле сводя концы с концами. Наконец настали совсем трудные времена. С каждым днём бедность всё больше одолевала его. И осталось у него кожи лишь на пару небольших сапог. Обессиливший от голода, он сумел вырезать из них лишь заготовки и пошёл спать. У него не было даже свечки, чтобы работать ночью.





Ish stoli ustida chiroyli etiklarni ko‘rib, ko‘zlariga ishonmadi. Ular shu qadar mohirona tikilgan ediki, choklari chokklariga aniq tushirilgandi.

– Men hech qachon bu qadar chiroyli etiklarni tikolmagan bo‘lardim, – qichqirib yubordi etikdo‘z ularni yaxshilab ko‘zdan kechirarkan.

Shu payt ustaxonaga boy savdogarlardan biri kirib keldi. Etiklarga maftun bo‘lib, usta bilan salomlashishni ham esidan chiqarib yuboribdi. Savdogar etiklarni kiyib ko‘ribdi, buni qarangki ular go‘yo ataylabdan uning uchun tikilgandek loppa-loyiq kelibdi.

– Olaman ularni, – quvonch bilan xitob qildi u va hamyonini chiqarib etikdo‘zga yaxshigina pul uzatdi.

– Men nihoyatda ilojsiz holatdaman... – dedi duduqlanib etikdo‘z.



Лежит сапожник и думает: «Ох, тяжко мне, тяжко! Видать, помру я от голода и нужды. И некому мне помочь!» Заснул он с горькими думами, а утром встал и пошёл к себе в мастерскую. Смотрит и глазам своим не верит. На столе стояли красивые сапоги. Они были так добротнo сшиты, что не уступали по красоте и качеству работе королевских мастеров.

– Я никогда не смог бы сшить такие чудные сапожки! – воскликнул он, осматривая их.

В мастерскую вошёл богатый купец. Он был так очарован сапогами, что даже забыл поздороваться с сапожником. Купец померил их, и они пришлись ему как раз впору.

Aslida u: “Men nihoyatda ilojsiz holatdaman, bu etiklar qanday qilib mening ustaxonamda paydo bo‘lib qolganini hech tushunolmayapman”, demoqchi edi. Biroq savdogar uning gaplarini etikdo‘z bu narxga etiklarni bermoqchimas deb tushumibdi. Hamyonidan yana xuddi shuncha pul chiqarib ustaning qo‘liga tutqazibdi-da, etikni olib chiqib ketibdi.

Usta nihoyatda quvonib, xotinini chaqiribdi va bo‘lib o‘tgan voqeani unga aytib beribdi. Endi ularda oziq-ovqat va bir necha juft poyabzal sotib olishga yetarli mablag‘ bor edi. Kech bo‘lganda usta yana ikki juft etikni bichib qo‘yib o‘zi uxlagani kirib ketibdi. Ertalab esa yana kechagi voqea sodir bo‘libdi. Stol ustida ikki juft bejirim va chiroyli, yangi etiklar turardi. Ular ham xaridorlar tomonidan qimmat narxga sotib olinibdi.

Shunday qilib bu holat har kuni takrorlanaveribdi, etikdo‘z kechqurun etiklarni bichib qo‘yarkan, tongga qa-

– Покупаю! – радостно сказал он и, вытащив кошелёк, протянул сапожнику немалые деньги.

– Да я никак не могу... – начал, запинаясь, сапожник.

Он хотел сказать: «Я никак не могу понять, откуда появились эти сапоги». Но купец подумал, что сапожник не хочет уступать в цене. Он добавил ещё столько же денег, взял сапоги и ушёл.

Обрадовался сапожник, позвал жену и рассказал ей о том, что с ним приключилось. На эти деньги они могли купить и еду, и кожу на несколько пар обуви.



dar esa ular tikilgan holatda tayyor turar ekan. Poyabzalar juda qimmat narxda sotila boshlabdi. Etikdo‘zning dovrug‘i tez kunda butun shaharga tarqalibdi. U endi to‘qlikda baxtiyor hayot kechira boshlabdi.

Kunlarning birida tikuvchi bir necha juft poyabzalni bichib bo‘lib, xotiniga:

– Quloq sol xotin, kimdir bizni kambag‘allik va ochlikdan qutqarib yaxshilik qilsa-yu, biz hamon uning kimligini bilmasligimiz yaxshimas. Kel, bugun bizga yordam berayotgan odamning kimligini bilish uchun uxlamasdan uni kutamiz, – debdi.

– Juda yaxshi o‘ylabsan erjon, men ham senga shu haqda aytmoqchi bo‘lib turuvdim, – javob qilibdi xotini.

Er-xotin ustaxonaning qorong‘i burchagiga yashirib, yaxshiroq ko‘rinishi uchun sham yoqib stol ustiga qo‘yishibdi. Yarim tunda cherdak tuynugidan ikki nafar parilar uchib kirishibdi. Qo‘shiq xirgoyi qilaturib tezda ishga kirishdilar. Ular shu qadar mohirona choklab, etik tagcharmlarini qoqib, atroflarini qayirib tikishardiki etikdo‘z va uning xotini ularning bajarayotgan ishini kuzatishga ulgurishmasdi. Oxirgi juft poyabzalar tayyor bo‘lganda parilar ustaxonani gir aylanishibdi-yu, uchib ketishibdi.

Hayrat va zavq-shavqdan o‘ziga arang kelgan etikdo‘zning xotini eriga qarab:

– Farovon hayotimiz uchun kimga minnatdorchilik bildirishimiz lozim ekanligini ham bilib oldik. Demak, shular ekanda bizni ochlikdan qutqarib qolgan. Bizga qilgan yaxshiliklari uchun ularni mukofotlashimiz darkor, erjon. Agar shular bo‘lmaganda, biz bu payt ko‘chama-ko‘cha kezib tilanchilik qilib yurgan bo‘larmidik, – dedi.

– Haqsan xotinjon, – uning fikrini ma‘qulladi eri. – Biroq biz ular uchun nima qilib bera olishimiz mumkin?

К вечеру он подготовил заготовки уже на две пары обуви и пошёл спать. А утром всё повторилось снова: на столе стояли две пары изящных новеньких сапог. И они были проданы за высокую цену.

Так каждый вечер он делал заготовки, а утром обувь была готова. Раскупали её по самой дорогой цене. Вскоре слава о сапожнике разнеслась по всему городу. И зажил он в достатке и благополучии.

Однажды он сделал много заготовок и сказал жене:

– Послушай, жена, нехорошо как-то получается. Кто-то спас нас от бедности и нищеты, а мы до сих пор не знаем кто? Давай сегодня ночью спустимся в мастерскую и посмотрим, кто нам помогает.

– Муженёк, как же хорошо ты придумал! Я и сама хотела тебе сказать об этом.

Зажгли они свечу, поставили на стол, чтобы лучше было видно, а сами спрятались в тёмном углу мастерской.


В полночь в слуховое окно влетели два маленьких эльфа. Напевая песенку, они быстро принялись за работу. Они так умело шили, строчили, подбивали и подгоняли, что сапожник и его жена еле успевали следить за ними. Когда была готова последняя пара, эльфы весело покружили в мастерской и улетели.

Придя в себя от удивления и восхищения, жена сапожника сказала:

– Так вот кому мы обязаны своим благополучием! Мы должны как-то отблагодарить их за добро, которое они нам сделали. Если бы не они, бродяжничали бы мы по белу свету.

– Ты права, жена, – согласился сапожник. – Но что мы можем сделать для них?







Xotini biroz o‘ylab turdi-da, so‘ng:

– Tashqarida qish. Havoning sovug‘ida issiqqina kiyim ular uchun eng kerakli buyum, nazarimda. Men ularga issiq palto, paypoq va qalpoqcha to‘qiyman, sen esa etikcha tikib berasan, – deb taklif kiritibdi.

Ular zudlik bilan ishga kirishibdilar. Kechga yaqin hamma narsa tayyor bo‘libdi. Bichilgan etiklar turadigan stol ustiga ularni qo‘ygan er-xotin mitti xaloskorlarini kutish uchun yana berkinib olishibdi. Tun yarmida uchib kelgan parichalar bichilgan etiklar o‘rniga chiroyli kiyimlar va etikchalarni ko‘rib, hayratdan qichqirib yuborishdi:

– Namuncha chiroyli bo‘lmasa bular?

Parilar kiyina boshlabdilar. Palto, paypoq va qalpoqchalar go‘yo kimdir ularning o‘lchamini olib tikib qo‘ygandek loyiq kelibdi. Quvnoq parichalar qo‘l ush-lashgancha raqsga tushib, qo‘shiq aytishibdi:



Она чуть подумала и сказала:

– На дворе зима. Тёплая одежда будет для них в самый раз. Я свяжу им тёплые костюмчики, носочки и шапочки, а ты сошьёшь сапожки.

Решили они так и сразу принялись за работу. К вечеру всё было готово. Положили они свои подарки на то место, где всегда лежали заготовки, а сами спрятались и стали ждать своих маленьких спасителей. В полночь появились эльфы и вместо заготовок увидели красивую одежду и сапожки.

– Ой! – воскликнули они восхищённо. – Какая прекрасная одежда!

Ko‘ylakchalar maftunkor,  
Fayzli uyda baxt bisyor.  
Tark etmasin uni baxt,  
Olib kelsin toj-u taxt.  
Bu uyda endi hammasi yaxshi bo‘ladi,  
Yaxshiliklari ming bo‘lib o‘zlariga qaytadi.

Parilar xushkayfiyatda ustaxonani tark etishibdi. Mamnun va baxtiyor er-xotin uxlagani kirib ketishibdi.

O‘shandan buyon parilar ularnikiga uchib kelishmasa-da, biroq etikdo‘z va uning oilasini baxt, omad umrlarining oxiriga qadar tark etmabdi. Ular tez-tez o‘sha parilarni eslab turishardi.



Стали эльфы одеваться. Костюмчики, носочки, шапочки и сапожки так им ладно подошли, словно кто-то снимал с них мерки. Весёлые эльфы взяли за руки и пустились в пляс, напевая:

Как прекрасен наш наряд,  
Как прекрасен наш наряд!  
В этом доме будет лад,  
Добро вернётся им стократ!

Повеселившись, эльфы покинули мастерскую, а довольные и благодарные сапожник и его жена пошли спать.

С тех пор эльфы к ним не прилетали, но удача и счастье не покидали сапожника и его жену до конца их жизни, и они не раз ещё вспоминали добрых эльфов.



332814